


KREDITLASH JARAYONIDAGI ASOSIY TUSHUNCHALAR. KREDIT SIYOSATI, GAROV SIYOSATI VA MONITORING.




“TURONBANK” ATBNING 2023-YIL UCHUN KREDIT SIYOSATI


ASOSIY TUSHUNCHALAR:




Bank kengashi - bank faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, boshqaruvga oid qarorlar qabul qilish jarayonida nazorat va tekshiruv vazifasini bajaradi hamda umuman bankning faoliyati va moliyaviy barqarorligi uchun javobgardir.



Bank boshqaruvi - bankni boshqarishning ijro etuvchi organi bo'lib, u bankning kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan faoliyat strategiyasi va uni boshqarish tizimiga muvofiq bankning faoliyatiga operativ boshqaruvni amalga oshiradi hamda bankning faoliyati uchun javobgarlikni to'liq zimmasiga oladi.



Kredit qo'mitasi – Bosh bankda tashkil etilgan, ushbu siyosat bilan belgilab berilgan vakolat doirasida tegishli qarorlar qabul qilish, “Turonbank” ATB Kredit qo'mitasi hamda Bank xizmatlari markazlarining Kredit komissiyalari to'g'risida” Nizomda belgilangan vazifalarni bajaruvchi **kollegial organ**.




Kreditlar va unga tenglashtirilgan operatsiyalar - qarz, kredit, mikroqarz, mikrokredit, mikrolizing, overdraft (mijozlarning depozit hisobvaraqlaridagi debet qoldig'i), lizing, faktoring operatsiyalari, savdoga oid moliyalashtirishlar (akkreditiv), kafolat va kafilliklar.







Anderrayter - arizalarni tezkor va sifatli o'rganish hamda vakolati doirasida qaror qabul qilish uchun yetarli malaka va bilimga ega bo'lgan Bosh bankdagi mas'ul xodim.




Bosh anderrayter – anderrayting dasturi orqali kelib tushgan kredit buyurtmanomalarini ko'rib chiqilishini tashkillashtiruvchi, buyurtmanoma-larni anderrayterlarga biriktirib beruvchi hamda anderrayterlar ishini muvofiqlashtiruvchi, anderrayterlar guruhi boshlig'i.



Anderrayting dasturi – qarz oluvchining moliyaviy holatini (kreditga layoqatini) va kredit ajratish masalasini ko'rib chiqish mumkin yoki mumkin emasligini dastlabki bosqichda aniqlab beruvchi hamda Bosh bank bilan filial o'rtasida kreditlashga doir tegishli hujjatlar almashinuvini ta'minlovchi maxsus (KFO) dastur.



Stop faktorlar – mijozni dastlabki qabul qilish vaqtidayoq (bank dasturi orqali hisobraqamlar holatini, moliyaviy hisobotlarni va h.k) o'rganib, kredit ajratish masalasini ko'rib chiqish mumkin yoki mumkin emasligini aniqlab berish imkonini beruvchi omillar.



Kredit siyosatining maqsadi - iqtisodiyot tarmoqlari va aholining kredit mablag'lariga ehtiyojini qondirish, kreditlashda amaldagi talablar va me'yorlarga rioya etish, tavakkalchiliklarni muntazam ravishda diversifikatsiyalash va bank likvidligini ta'minlagan holda maksimal foyda olishdir.

KREDIT SIYOSATI 2023-YIL



Mazkur kredit siyosati kredit, mikroqarz, overdraft ajratish amaliyotlari, shu jumladan faktoring va lizing xizmatlari ko'rsatish, bank kafolatlari va kafillik berish, qoplanmagan akkreditiv hisobvarag'i ochish bilan bog'liq majburiyatlar uchun qo'llaniladi.

Kredit siyosati bankda kreditlash jarayonida qo'llaniladi va bankning kredit portfelini shakllantirish, restrukturizatsiya qilish, kreditlashning samaradorligi va sifatini hamda kreditlash bilan bog'liq xatarlarni boshqarishning asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi.

Kredit siyosatiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha bankning barcha xodimlari o'z taklif va mulohazalarini berish huquqiga ega.

Kreditlar O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan rezident yuridik shaxslarga va kichik tadbirkorlik subyektlariga hamda aholining keng qatlamiga shartnoma asosida **qaytarishlik, to'lovlilik, ta'minlanganlik, muddatlilik va maqsadli foydalanish tamoyillari asosida beriladi.**

KREDIT TURLARI



KREDITLAR BO'YICHA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MARKAZIY BANKINING ME'YORIY HUJJATLARIGA MUVOFIQ QUYIDAGICHA LIMITLAR BELGILANADI:

Bir qarz oluvchi yoki bir-biriga daxldor qarz oluvchilar guruhi uchun tavakkalchilikning eng yuqori miqdori bank birinchi darajali kapitalining **25 foizidan** oshmasligi kerak;

Bir qarz oluvchi yoki bir-biriga daxldor qarz oluvchilar guruhiga to'g'ri keluvchi ta'minlanmagan kredit (ishonchli kredit), shuningdek faktoring xizmatlari uchun tavakkalchilikning eng yuqori miqdori bank birinchi darajali kapitalining **5 foizidan** oshmasligi zarur;

Bank tomonidan mijozlarga ko'rsatilgan lizing xizmatlarining umumiy summasi (avializing bundan mustasno) bank birinchi darajali kapitalining **25 foizidan** oshmasligi kerak;

Yirik
tavakkalchiliklarning
umumiy miqdori bank
birinchi darajali
kapitalining
5 barobaridan
oshmasligi lozim;

QARZDORLARGA DOIR MOLIYAVIY HISOBOT

Bank mijozning kredit buyurtmasini ko'rib chiqish jarayonida qarz oluvchining hamkorlari, banklar va boshqa tashqi manbalardan ham foydalanishi mumkin.

Mijoz tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarning haqqoniyligiga shubha tug'ilgan taqdirda bank kredit berilgunga qadar qarz oluvchining korxonasi (xo'jaligi)da hisob yuritilishining ahvolini, balans ma'lumotlarining haqqoniyligini, tovar-moddiy boyliklarning haqiqatda mavjudligini, ularning saqlanish sharoitlarini joyida o'rganishi mumkin.

Moliyaviy hisobotlar, pul oqimi va boshqa hisobotlarni qarz oluvchi tomonidan taqdim etish muddatlari kredit shartnomasida ko'rsatilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasining "Kredit axboroti almashinuvi to'g'risida"gi Qonuni hamda Markaziy bankning me'yoriy hujjatlariga asosan Kredit Axboroti Davlat Reestri (KADR)ga va kredit byurolariga bank Bank xizmati markazlari tomonidan kredit bo'yicha tegishli ma'lumotlar taqdim etilishi hamda ma'lumotlar almashinuvi ta'minlanishi lozim.

Kredit ajratish to'g'risidagi buyurtmalar bo'yicha tegishli qaror qabul qilinishidan avval "Kredit axboroti tahliliy markazi" (KATM) kredit byurosining ma'lumotlar bazasidan qarz oluvchining kredit tarixi to'g'risidagi axborot olinishi zarur.

Har bir qarz oluvchi bo'yicha ochilgan kredit yig'majildida "Kredit axboroti tahliliy markazi" (KATM) kredit byurosidan olingan ma'lumotlar asosida mijozning kredit tarixi tahliliga bog'liq hujjatlar bo'lishi lozim.

KREDITLARNI BERISH TARTIBI

Bank jismoniy va yuridik shaxslardan kredit buyurtmalari va unga ilova qilinadigan hujjatlarni Bank Bank xizmati markazi/xizmat kursatish ofisalari hamda zarur dasturiy ta'minot (bankning rasmiy Veb sayti yoki mobil ilovalari) orqali elektron tarzda dastlabki ko'rib chiqish uchun qabul qilishi mumkin. Bunda, kredit arizalarini tezkor va sifatli o'rganish hamda qaror qabul qilish uchun avtomatlashtirilgan dasturiy ta'minot yoki yetarli malaka va bilimga ega bo'lgan mas'ul xodim (anderrayterlar) tomonidan ajratilishi ma'qullangan kreditlar bo'yicha Bank xizmati markazi Kredit komissiyasi yoki Bosh bank Kredit qo'mitasi tomonidan qaror qabul qilinmasdan ajratilishi mumkin.

Mijozning kredit olish bo'yicha yig'majildini Kredit komissiyasi muhokamasiga taqdim etish uchun Bank xizmati markazi mas'ul tarkibiy tuzilma mas'ul xodimi qarz oluvchi tomonidan taqdim etilgan biznes-reja(TIA)ni batafsil o'rganib chiqadi. Bunda, savdo va vositachilik faoliyati, shuningdek ishlab chiqarish korxonalariga yangi tashkil etilgan bo'lsa bazaviy hisoblash miqdorining 100 (bir yuz) barobarigacha aylanma mablag'larni to'ldirish uchun, kamida 6 (olti) oylik bank hisobvaraqa aylanmasiga ega tadbirkorlik subyektlariga bazaviy hisoblash miqdorining 2000 (bir ming) barobarigacha miqdorda aylanma mablag'larni to'ldirish va korxonaning o'z ehtiyoji uchun yengil avtomashina sotib olish uchun ajratiladigan kreditlarga biznes-reja talab qilinmasdan, mijozning oxirgi 6 (olti) oyda amalga oshirgan faoliyati natijasida bankdagi hisobvaraqlariga tushayotgan oylik tushumdan kelib chiqqan holda, anderrayter tomonidan ma'qullangandan so'ng ajratilishi mumkin.

Yuridik shaxs tashkil etmagan holda faoliyat yuritayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlarga kredit mablag'lari ajratishning maksimal miqdori amaldagi bazaviy hisoblash miqdorining 3000 (uch ming) barobaridan oshmasligi lozim. Bank balansidagi mol-mulklarni sotib olish uchun kredit ajratishda ushbu talab istisno qilinishi mumkin.

Qarz oluvchiga kreditni rasmiylashtirish va undan foydalanishni nazorat qilish chog'ida olingan ma'lumotlar qarz oluvchining kredit yig'majildida mujassamlashtiriladi.

“TURONBANK” ATBNING 2023-YIL UCHUN KREDIT TA’MINOTI SIYOSATI

Kredit ta’minoti siyosati - “Turonbank” ATB tomonidan ajratilgan kredit, ko’rsatilgan lizing xizmatlari hamda berilgan bank kafolatlari bo’yicha quyidagi ishlarni amalga oshirish tartibini belgilab beradi:




Taqdim qilinadigan ta’minotga qo’yiladigan talablar;

Garov mulkiga nisbatan garov shartnomalari rasmiylashtirish va ta’qiq qo’yish tartibi;

Mustaqil baholash tashkilotlarning baholash hisobotiga qo’yiladigan talablar;

Ta’minot sifatida taqdim qilingan mol-mulkni boshqa mol-mulkka to’liq yoki qisman almashtirish va majburiyatning bajarilgan qismiga mutanosib ravishda garovdan chiqarish tartibi.

GAROV SIFATIDA TAQDIM ETILAYOTGAN MOL-MULK QUYIDAGI TALABLARGA JAVOB BERISHI LOZIM:



GAROV MULKIGA NISBATAN GAROV SHARTNOMALARI RASMIYLASHTIRISH VA TA'QIQA QO'YISH TARTIBI

Kredit ta'minotiga qabul qilingan xar qanday mulkka tuzilgan garov shartnomasi **Notarial idora tomonidan** rasmiylashtirilib, taqiqa qo'yilishi lozim. Birlamchi bozordan ko'chmas mulk yoki avtotransport vositalari sotib olish uchun ajratilgan kreditlar, garov ta'minotiga qabul qilinayotgan ombordagi tovarlar hamda kredit hisobiga sotib olingan uskunalar (ya'ni ushbu uskunalar keltirilib o'rnatilgandan so'ng mulkiy majmua sifatida garov ta'minotiga rasmiylashtirilishi belgilangan kreditlar) bundan mustasno, biroq ushbu mulklarga nisbatan garov shartnomalari BXM tomonidan mustaqil rasmiylashtirilishidan avval, **mulklar sug'urtalanishi** talab etiladi.

Birlamchi bozordan ko'chmas mulk yoki avtotransport vositalari sotib olish uchun ajratilayotgan kreditlarning garov mulkiga nisbatan garov shartnomasi BXMLar tomonidan mustaqil rasmiylashtiriladi. Ushbu kreditlar ajratilish jarayonida mulk egasi turmush o'rtog'ining garovga taqdim etishga rozilik arizasi Notarial idora tomonidan rasmiylashtiriladi (birlamchi bozordan avtotransport vositasi sotib olish uchun ajratilgan kredit bundan mustasno).

Birlamchi bozordan ko'chmas mulk yoki avtotransport vositalari sotib olish uchun ajratilayotgan kreditlarning garov mulkiga bo'lgan taqiq BXMLarda monitoring va garov ekspertizasi sho'basi xodimi tomonidan qo'yiladi hamda taqiq qo'yilganligini tasdiqlovchi **"TA'QIQ KARTA"** yig'ma jildga tikilishi lozim.

MUSTAQIL BAHOLOVCHINING HISOBOTIGA TALABLAR

Baholash hisoboti kreditlash jarayonida foydali instrumenti bo'lishi lozim.

Hisobot baholashning maqsadi va belgilanishini (kreditlash maqsadida), aniqlanadigan qiymat turini (bozor) ko'rsatish bilan muayyan shaklda tuziladi. Baholovchi hisobotda mulkni batafsil bayon qilishi va uning bozor qiymatini baholab berishi lozim. Baholash natijalari haqida hisobot (masalan, bino) quyidagilardan iborat bo'lishi zarur: binoning qavatlar bo'yicha rejasi yoki kvartira rejasi, xonaning to'liq bayoni, uning turi va asosiy tavsiflari, muhandislik kommunikatsiyalari (isitish, suv ta'minoti, kanalizatsiya va boshqa), uning holati, umumiy foydalanish joylari holati, zaruriy ta'mirlash ishlari ro'yxati, yaqin hudud tavsifi (tezkor magistralga yaqinligi, transport tuzilmalari sharoitlari, sanoat korxonalarining mavjudligi yoki yaqinligi, ekologik holat), ushbu tumanning imtiyozligi bahosi, aholi uchun uning jozibadorlik darajasi, 1 kv.m turar joy maydonining o'rtacha qiymati, ushbu tumanda uy-joy narxining o'sish yoki pasayish istiqbollari.

Mulkning bozor qiymati 3 ta usul asosida aniqlanishi lozim:

- ✦ Xarajat usuli;
- ✦ Solishtirish usuli;
- ✦ Daromad usuli.

GAROV MULKLARINI ALMASHTIRISH VA QISMAN GAROVDAN CHIQUARISH TARTIBI

Qarzdor quyidagi talablarga javob bergan holatlardagina garov mulklarini almashtirish yoki qisman - garovdan chiqarishga ruxsat etiladi:

- ✦ moliyaviy barqaror faoliyat ko'rsatishi;
- ✦ bank hisobvarag'i orqali muntazam pul aylanmasini amalga oshirishi;
- ✦ oxirgi moliyaviy yil yakunlari bo'yicha hamda joriy yil tegishli choragi yakuni bo'yicha operativ balans, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotlarga ko'ra kreditga layoqatliligi kamida 2-sinf bo'lishi;
- ✦ garov mulklarini almashtirish yoki qisman garovdan chiqarish jarayonida mijozning bank oldida muddati o'tgan qarzdorliklari bo'lmasligi;
- ✦ "Muddatida to'lanmagan hisob-kitob hujjatlari" hisobvarag'ida (keyingi o'rinlarda "2-sonli kartoteka") qarzdorligi mavjud bo'lmasligi.

Shuningdek, almashtirish uchun taqdim etilayotgan va garovda qolayotgan **mulk likvidli, moddiy va ma'naviy eskirmagan bo'lishi, bozorda erkin sotilishi**, ya'ni unga **xaridor topish mushkul bo'lmasligi** zarur.

Ushbu shartlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, majlis bayonlari va topshiriqlari asosida ishlarni bajarayotgan (xizmatlarni ko'rsatayotgan) xo'jalik yurituvchi subyektlarga ajratilgan kreditlar hamda strategik mijozlar va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan loyihalarni amalga oshirayotgan, shuningdek yuqoridagi talablar to'liq bajarilmaganlik sabablari real asoslantirilgan qarzdorlar bo'yicha alohida hollarda istisno qilinishi mumkin.

"TURONBANK" ATB TIZIMIDA KREDIT VA UNGA TENGLASHTIRILGAN OPERATSIYALAR BO'YICHA **MONITORING O'TKAZISH TARTIBI**

Foydalaniladigan asosiy tushunchalar:

Monitoring – bu kredit va unga tenglashtirilgan operatsiyalarni hamda ularga hisoblangan foizlar, agar sug'urta mukofoti Bank tomonidan amalga oshirilgan bo'lsa, mazkur to'lov miqdoridagi summani qarz oluvchidan undirish va boshqa moliyaviy to'lovlarini o'z vaqtida to'lanishini ta'minlash maqsadida moliyalashtirilgan loyihaning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini bajarilishi, ta'minot (garov mulklari, kafillik, sug'urta polisi, kafolat va boshqalar) holati yuzasidan olib boriladigan nazorat va tahlil qilish jarayoni;

Dastlabki monitoring - mijoz tomonidan bank xizmatlari markaziga kreditlash xizmatini ko'rsatilishini so'rab murojaat qilgan har bir holat bo'yicha loyihani o'rganayotgan mutaxassis tomonidan taqdim etilgan xujjatlarni va bevosita mijoz faoliyat ko'rsatayotgan va garov ob'ektlari joylashgan joyga chiqib o'rganish olib borish jarayoni;

Maqsadli ishlatish monitoringi - kredit ajratilgandan so'ng, hujjatlar asosida hamda loyiha amalga oshirilishi belgilangan manzilga chiqqan holda kreditning maqsadli ishlatilishini o'rganishdir;

Joriy monitoring – har bir kredit bo'yicha qarz oluvchi va kafilning moliyaviy holatini, garovga qo'yilgan mulkning holati va saqlanishi, biznes reja ko'rsatkichlari bajarilishini, kredit shartnomasi bo'yicha berilgan kreditning to'liq qaytarilishini va foizlarning o'z vaqtida to'lanishini o'rganishdir;

Potensial muammoli kreditlar – kredit portfeli tarkibidagi 60 kundan oshgan lekin 90 kundan oshmagan muddati o'tgan qarzдорliklari mavjud bo'lgan yoki "substandart" toifasida tasniflangan kreditlar;

MONITORINGNI AMALGA OSHIRISH MUDDATLARI

Dastlabki monitoring

- Mijoz tomonidan kredit ajratilishini so'rab bankka ariza bilan murojaat etilgandan so'ng;
- Bunda, dastlabki monitoring natijalari alohida hujjat bilan rasmiylashtirilmaydi. Bunda, garov ta'minotini ko'zdan kechirish dalolatnomasi va mas'ul xodimning loyiha yuzasidan bergan xulosasi dastlabki monitoring hujjati bo'lib hisoblanadi.

Maqsadli ishlatish monitoringi

- Chet eldan import qilinishi ko'zda tutilgan mahsulotlar (ish va xizmatlar) uchun ajratilgan kreditlarni maqsadli ishlatilish monitoringi kredit ajratilgan sanadan e'tiboran 180 kungacha bo'lgan muddatda;
- boshqa maqsadlar uchun ajratilgan kreditlar bo'yicha, kredit ajratilgan sanadan e'tiboran - 30 kungacha bo'lgan muddatda.

Joriy monitoring

- Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga ajratilgan kreditlar har olti oyda bir marotaba;
- Bank balansiga qabul qilingan hamda bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan sotilgan mulklarning holati har chorakda bir marotaba;
- Jismoniy shaxslarga ajratilgan ipoteka va avtokreditlar garov ta'minoti hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun ajratilgan kreditlar har yilda kamida bir marotaba.

JORIY MONITORINGNI AMALGA OSHIRISH JARAYONI

Kredit qaytarilishini o'rganish

Olingan kreditlar bo'yicha asosiy qarz va unga hisoblangan foizlarni belgilangan muddatlarda so'ndirib borilayotganligi holati tahlil qilinadi.

Moliyaviy faoliyat tahlili

Qarz oluvchining (yoki kafilning) balansi va moliyaviy natijalari to'g'risidagi hisoboti asosida Qarz oluvchi faoliyatining moliyaviy tahlili amalga oshiriladi.

Biznes reja tahlili

Qarz oluvchining hisob-kitob hisobvarag'idagi pul tushumlari asosida, qarz oluvchi tomonidan taqdim qilingan biznes-reja ko'rsatkichlarining bajarilishi o'rganiladi.

Loyihani joyiga chiqib o'rganish

Joriy monitoring qarz oluvchining joylashgan manziliga chiqish orqali amalga oshiriladi. Bunda, qarz oluvchining ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish faoliyati o'rganiladi.

Garov holatini o'rganish

Monitoring qarz oluvchining joylashgan manziliga chiqish orqali amalga oshirilgan holatda, bir vaqtning o'zida kredit bo'yicha garov ta'minoti holati tekshiriladi.

POTENSIAL MUAMMOLI VA MUAMMOLI KREDITLARNI ANIQLASH

Potensial muammoli kreditlar

60 kundan oshgan lekin 90 kundan oshmagan muddati o'tgan qarzdorliklari mavjud yoki "substandart" toifasida tasniflangan kreditlar;

korxona hisob raqamida amalga oshirilgan oylik tushum miqdorining kredit to'lov grafigi bo'yicha o'rnatilgan oylik to'lov miqdorining 80 foizidan kam bo'lishi;

qarz oluvchi tomonidan majburiyatlarning to'liq yoki qisman bajarilishida qiyinchiliklar tug'diradigan kutilmagan holatlarning yuzaga kelishi, jumladan: tabiiy ofatlar, kredit qaytarilmasligini sug'urtalovchi sug'urta polisi muddatining tugashi, garov mulki holatining yomonlashishi, garovning yetarli darajada yoki umuman rasmiylashtirilmaganligini aniqlash va/yoki garovga qo'yuvchining mol-mulkni sotishga uringanligi faktlari, kafil (garant) holatining yomonlashishi va boshqalar.

Muammoli kreditlar

kreditdan maqsadsiz foydalanish;

90 kundan ortiq muddati o'tgan kredit va/yoki foiz qarzdorliklari mavjud, shuningdek "qoniqarsiz", "shubhali", "umidsiz" aktiv toifasida tasniflangan kreditlar;

Garov mulkining har qanday begonalashtirilishi, buzib tashlanishi va /yoki shartnomada belgilangan muddatda garovga qo'yib berilmasligi va boshqa salbiy holatlar.

MUAMMOLI KREDITLARNI ANIQLASHDA **ERTA** **OGOHLANTIRISH** INDIKATORLARI

Nomoliyaviy indikatorlar

Korxona ta'sischi-lari va rahbarlarining o'zgarishi;

Tarmoqdagi o'zgarishlar;

Mijozning bozordagi pozitsiyasining o'zgarishi va boshqalar.

Moliyaviy indikatorlar

Mijoz moliyaviy holatining yomonlashishi;

Mijoz pul oqimlarining kamayib ketishi;

Qarz yukining o'sishi, kechiktirilgan to'lovlarning mavjudligi.

“TURONBANK” ATB TIZIMIDA MUAMMOLI AKTIVLARNI UNDIRISH, EHTIMOLIY YO‘QOTISHLARGA QARSHI YARATILGAN ZAXIRALAR HISOBIDAN QOPLASH HAMDA HISOBIDAN CHIQRISH TARTIBI

ASOSIY TUSHUNCHALAR:

01

Muammoli aktivlar

— sifati “qoniqarsiz”, “shubhali” va “umidsiz” deb tasniflangan kredit, mikroqarz, overdraft, lizing, faktoring, qimmatli qog‘ozlar, investitsiyalar, boshqa banklardagi mablag‘lar, olinishi lozim bo‘lgan hisoblangan va (yoki) undirilmagan foizli va foizsiz daromadlar, bankning boshqa xususiy mulklari, bo‘lib-bo‘lib to‘lash shaklida sotilgan mulklar, balansdan tashqari moddalar (chaqirib olinmaydigan kredit majburiyatlari, foydalanilmagan kredit liniyalari, akkreditivlar, kafolatlar) hamda kredit tavakkalchiligi mavjud bo‘lgan boshqa aktivlar va balansdan tashqari moddalar;

02

Shartlari qayta ko‘rib chiqilgan aktivlar

— shartnoma va (yoki) unga qo‘shimcha kelishuvga muvofiq asosiy shartlari o‘zgartirilgan aktivlar;

03

Aktivning jami qiymati

— aktivning bank balansida va balansdan tashqari moddalarda aks ettirilgan asosiy qarzi va unga hisoblangan foizlari, penya, komission va boshqa foizsiz to‘lovlari qoldig‘ining ular bo‘yicha yaratilgan zaxira ayrilmagan miqdori.

04

Muddati o‘tgan qarzдорlik

— qarzдор tomonidan shartnoma yoki qonunchilik hujjatlarida ko‘rsatilgan muddat va shartlarda bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan bank oldidagi majburiyatlar;

ASOSIY TUSHUNCHALAR:

05

Soft-collection bosqichi

– muddati o'tgan qarzdorlik yuzaga kelgan sanadan boshlab, tegishli sud organlari (notarial idoralari)ga da'vo arizalari kiritilgunga qadar muddati o'tgan qarzdorliklarni undirish choralari ko'rish;



06

Hard-collection bosqichi

– muddati o'tgan qarzdorliklarni va maqsadsiz ishlatilgan kreditlarni undirish yuzasidan tegishli sudlarga da'vo arizalarini kiritish, huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ariza bilan murojaat qilish, o'z muddatida amalga oshirilmagan qarzdorliklar bo'yicha qarzdor va/yoki garov mulki egalari (kafillar, sug'urta kompaniyalari) bilan muzokaralar o'tkazish orqali va amaldagi qonunchilik asosida undirish choralari ko'rish;

MUAMMOLI KREDITLARNI ANIQLASH VA TAHLIL QILISH

Har oyning oxirgi sanasida
kelgusi oy uchun to'lov muddati
keladigan kredit va foiz
qarzdorliklarini aniqlaydi hamda
so'ndirish choralarini ko'radi;

Muammoli kredit va foiz
qarzdorliklarining undirilishi
hamda kredit qarzdorligi evaziga
bank balansiga qabul qilingan
mulklarni realizatsiya qilinishi
yuzasidan reja-grafiklar ishlab
chiqadi;

O'tgan oylarda undirilmay
qolgan kreditlarni tahlil qiladi
va bartaraf qilish yuzasidan
takliflar ishlab chiqadi;

Kredit porfelida vujudga
kelishi mumkin bo'lgan
potensial muammoli
qarzdorliklarni aniqlash
choralarini ko'radi;

Tegishli bo'limlar bilan
hamkorlikda muammoga
aylangan qarzdorliklarni
so'ndirish choralarini ko'radi;

Tegishli bo'limlar bilan
hamkorlikda maqsadsiz
foydalanilgan kredit
qarzdorliklarini muddatidan
oldin undirish choralarini
ko'radi;

Monitoring natijalaridan kelib
chiqib, muammoga aylanishi
mumkin bo'lgan
qarzdorliklarni undirish
choralarini ko'radi;

Muammoli qarzdorliklarni
undirish yuzasidan yo'l
xaritasi ishlab chiqadi hamda
ijrosini ta'minlaydi.

Muammoli kreditlarni undirish tartibi kredit shartnomalarida qayd etilgan talablardan kelib chiqqan holda belgilanadi. Muammoli kreditlar undirish ishlari **Soft va **Hard collection** bosqichlari orqali tashkil qilinadi.**

SOFT COLLECTION BOSQICHI

Kredit ajratgan tarkibiy bo'linma va Muammoli aktivlar bilan ishlash bo'limi xodimlari bilan hamkorlikda kredit va foiz to'lovlari bo'yicha 30 kungacha muddati o'tgan to'lovlarni (joriy to'lovlarni) so'ndirish choralarini ko'radi.

Dastlabki 30 kun davomida qarzdor bo'lgan jismoniy shaxslarga va yuridik shaxslarning rahbarlariga har 2 kunda muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorliklarni so'ndirish yuzasidan dasturiy ravishda SMS xabarnoma yuboriladi. Shuningdek, muddati o'tkazib yuborilgan, qarzdorlik yuzaga kelgan sanadan boshlab 7 kalendar kuni davomida har qanday aloqa bog'lash usullaridan, shu jumladan pochta, elektron aloqa vositalaridan yoki qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa usullardan foydalanib ogohlantirish beriladi.

HARD COLLECTION BOSQICHI

O'tkazilgan muzokalardan keyin ham qarzdorlar (kafil yoki mulk egalari va boshqalar) tomonidan to'lovlar amalga oshirilmasa, tegishli **oyning 15 sanasidan kechiktirmasdan kredit qarzdorligini muddatidan oldin to'liq undirish yuzasidan va boshqa salbiy holatlar aniqlanganda sud organlariga da'vo arizasi kiritish uchun O'zbekiston Savdo-sanoat palatasining hududiy bo'linmasiga murojaat** qilinadi.

Bank va qarzdor o'rtasida mediativ kelishuvga erishilmagan taqdirda, tegishli **oyning oxirgi sanasiga qadar tegishli sud** organlariga yoki **ijro xatini chiqartirish** uchun Notarial idoralarga **da'vo arizalari kiritilishi** shart. Sud jarayonida qarzdor bilan kelishuvga erishilgan taqdirda, mazkur kelishuv mediativ tartib tamoyillariga rioya qilgan holda yoki **sud ajrimi bilan tasdiqlanishi** lozim.

MUAMMOLI QARZDORLIKLARNI UNDIRISH BOSQICHLARI

Muammoli aktivlarni undirish kredit shartnomasi shartlariga, erishilgan kelishuvlarga hamda tegishli sud qarorlariga asosan amalga oshiriladi.

Kredit qarzdorliklari so'ndirilishida quyidagi tartibga qat'iy rioya etilishi shart:

a) Yuridik shaxslar va yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan tadbirkorlik subyektlarining qarzdorliklari 2-sonli kartoteka orqali so'ndirilganda kalendar navbati bo'yicha dasturiy ravishda.

b) Boshqa hollarda quyidagi tartibda:

- Kredit qarzdorligini undirish bilan bog'liq bank xarajatlari (sud, pochta va boshqa xarajatlar hamda komission daromadlar);
- Kredit bo'yicha hisoblangan muddati o'tgan foiz;
- Muddati o'tgan kredit qarzdorligi;
- Kredit shartnomaga asosan undirish muddati kelmagan muddati uzaytirilgan foizlar hamda joriy hisoblangan foizlar;
- Kredit shartnomaga asosan kredit bo'yicha joriy qarzdorliklar. Qarzdorliklar sud tartibida undirilayotgan hollarda, undiruv sud qarorida ko'rsatib o'tilgan qarzdorliklarni qoplashga yo'naltiriladi.

Qarzdor tomonidan kredit va foiz qarzdorliklari bo'yicha to'lovlar 1 yildan ortiq muddat davomida amalga oshirilmagan yoki qarzdorning 2-son kartotekasida muddati **366 kun va undan ortiq kunga kechiktirilgan to'lov** hujjatlari mavjud bo'lsa, ushbu kredit **"Umidsiz"** deb **tasniflanadi**. "Umidsiz" deb tasniflangan kreditlar Bank Boshqaruvining qaroriga asosan yaratilgan zaxira hisobidan qoplanadi hamda hisobi bank balansining 95413 hisobraqamiga o'tkaziladi. Shu bilan bir vaqta hisoblangan foiz qarzdorliklari ham daromaddan qaytarilib, hisobi balansdan tashqari 91501 hisobraqamiga o'tkaziladi va foiz hisoblash ushbu hisobraqamda davom ettiriladi.

Shuningdek, qarzdorning kredit ta'minoti sifatida garovga qo'yilgan mol-mulkleri yoki o'zining pul mablag'lari mavjud bo'lmagan holatlarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 4-dekabrda 422-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Banklarning kreditlari bo'yicha qarzdorlik o'z vaqtida qaytarilmagan taqdirda undiruvni qarzdorlarning likvidli mol-mulkiga qaratish" Tartibiga asosan undiruv uning boshqa mol-mulklariga qaratish choralari ko'riladi.

KREDITLARNI RESTRUKTURIZATSIYA QILISH TARTIBI

Kreditni restrukturizatsiya qilish yuzasidan kelib tushgan murojaatlar vakolat doirasida kredit ajratishga ruxsat bergan kollegial organ tomonidan ko'rib chiqiladi.

BXM kredit komissiyasi vakolatida yoki Anderrayterlar tomonidan ko'rib chiqib ruxsat berilgan kreditlarning shartlarini qayta ko'rib chiqish esa faqat Bosh bank Kredit qo'mitasining ijobiy qaroriga asosan amalga oshiriladi.

Qarzdor tomonidan bank BXMga kreditni restrukturizatsiya qilishni so'rab murojaat qilinganda, **quyidagi hujjatlar arizaga ilova qilinishi shart:**

- Restrukturizatsiya qilinishi nazarda tutilgan loyihaning **texnik-iqtisodiy asoslari (biznes-rejasi)**, unda restrukturizatsiya qilinishiga olib kelgan sabablarni bartaraf etish va taqdim etilgan **TIAni** o'z vaqtida bajarilishini ta'minlovchi chora-tadbirlar aks ettirilishi zarur.
- Xom-ashyo va materiallar yetkazib berish to'g'risidagi shartnomalar;
- Ishlab chiqarilgan mahsulotni sotish to'g'risidagi shartnomalar;
- Ta'minotning holati bo'yicha ma'lumot;
- Oxirgi hisobot sanasiga buxgalteriya balanslari (Kafil korxonaning ham agar kafillik shartnomasi mavjud bo'lsa.
- Korxona ta'sischilarining mazkur masala bo'yicha bayonnomasi.

Restrukturizatsiya qilinishi ko'zda tutilgan kredit bo'yicha BXMLarga biriktirilgan Monitoring sho'basi tomonidan mazkur kredit bo'yicha monitoring dalolatnomalarini BXM kredit komissiyasi muhokamasiga taqdim qilinishi shart.

Bunda, ajratilgan kreditning maqsadli ishlatilganligi, biznes-reja ko'rsatkichlarining bajarilishi, pul oqimining tahlili, qarzdor faoliyatidagi yuzaga kelayotgan muammolar, ularni bartaraf qilish yuzasidan takliflar bo'lishi shart.

Kreditni restrukturizatsiya qilish yuzasidan kelib tushgan murojaat BXM kredit ajratishga mas'ul bo'lgan bo'linma tomonidan BXM Kredit komissiyasi muhokamasiga kiritiladi hamda **3 kun muddat davomida** ko'rib chiqiladi.

Bosh bank Kredit qo'mitasi tomonidan **10 kun muddatda** hamda bank Boshqaruvi va Kengashi qarorlari asosida ajratilgan kreditlar bo'yicha tegishli **Kollegial organlar tomonidan 5 kun muddatda ko'rib chiqiladi.**

Agarda, BXM Kredit komissiyasi kreditni restrukturizatsiya qilishni rad qilsa, u **holda 3 kun muddat ichida** qarzdorga asoslantirilgan javob xati beriladi.





Yuqoridagi Kollegial organlarning ijobiy qarori qabul qilingandan so'ng 5 kun muddatda BXM yuristi va mas'ul xodimlari tomonidan tegishli hujjatlar rasmiylashtiriladi.

[Kredit, garov, ipoteka va kafillik shartnomalariga tegishli o'zgartirishlar](#) kiritiladi.

Agarda kredit chet el valyutasida jalb qilingan liniyalardan yoki boshqa liniyalardan jalb qilingan mablag'lar hisobidan ajratilgan bo'lsa, [G'aznachilik departamentining resurslar muddati yuzasidan olingan ijobiy xulosasidan so'ng](#), Bosh bank Kredit qo'mitasi [tomonidan kreditni restrukturizatsiya qilish yuzasidan qaror qabul](#) qilinadi.

Restrukturizatsiya qilinayotgan kreditlar yuzasidan qaror qabul qilishdan oldin, ushbu kredit uchun Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasining moliyaviy yordamlaridan (kompensatsiya va kafillik) foydalanilgan bo'lsa, u holda [jamg'armaning roziligi olingandan so'ng](#) BXM Kredit komissiyasi muhokamasiga kiritiladi.

Kredit restrukturizatsiya qilingandan so'ng, "Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risida"gi Nizom (ro'yxat raqami 2696, 14.07.2015-yil) talablariga asosan shartlari qayta qo'rib chiqilgan kreditlar hisobraqamiga o'tkaziladi hamda tegishlicha tasniflanib, avtomatik tarzda ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi zaxira shakllantiriladi.

Hukumat qarorlari va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Nazorat qo'mitasining qarorlariga asosan shartlari o'zgartiriladigan kreditlar bundan mustasno.

E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!!!